

TURKIY SHOIRLAR TAZKIRASINING AYRIM HUSUSIYATLARI

Abdukarimova Barno
Manbashunoslik – 2 kurs

Annotatsiya

Maqolada mumtoz adabiyotimizda tazkira yozish anʼanalari haqida gap boradi. Mumtoz adabiyotimizdagi koʻplab tazkiralarning hamda XVI asrda yaratilgan Oshiq Chalabiyning (1520-1571) “Mashoyiru-sh-shuaro” tazkirasini maqolada tahlilga tortilgan.

Umuman olganda “tazkirachilik” koʻplab shoirlar tomonidan amalga oshirilgan. Xususan turkiy adabiyot namoyandalari ham bu ijoddan mustasno emas. Ular ham qoʻldan kelgancha oʻz mahoratlarini sinab koʻrganlar.

Shoirlar ijodiga biror-bir maqsadni koʻzlab baho berish zaylida yozilgan tazkiralarning oʻzining yoʻnalishi bilan xolis ruhdagi tazkiralardan farq qiladi. Bu farq shundan iboratki, ular hammadan oldin biror adabiy muhit va uning badiiy qarashlarini yoqlab chiqadi, xolis shoirlar ijodiga gʻarazgoʻylik bilan baho beradi, ularni qoralaydi. Tuzilish jihatidan ular biroz bayozga yaqinlashadi, payrov, gʻazal, muhammaslar bilan toʻldiriladi, shoirlar haqidagi maʼlumot asosan sheʼriy tarzda (“Majmuai shoiron” Ahmad Tabibiyning ikki tazkirasini) keltiriladi.

XV asr tazkirachilarining fikri va devon tahlillariga tayanib, XV-XVI asrlarda Onadoʻlida Alisher Navoiyning sheʼrlariga 70 ga yaqin shoir nazira yozgan deyish mumkin. Ammo shoirlarning hammasi ham Navoiy devonlari bilan yaqindan tanish boʻlgan, degan xulosa chiqarish notoʻgʻri. Chunki shoirlarning bir qismi Navoiy devonlarini bevosita oʻqimagan holda naziralarni yozishgan. Misol tariqasida, birinchi marotaba Ahmad Posho nazira bogʻlagan gʻazalga keyinchalik Fuzuliy yoki Kamolposhozoda murojaat qilgan. Bundan koʻrinib turibdiki, ilk naziraga “vosita sheʼr” desak, koʻp shoirlar oʻsha vosita sheʼrga nazira yozishgan.

Tazkira anʼanasi sheʼrdan tashqari sohalarni ham qamrab olib, XX asr oʻrtalarigacha uzluksiz davom etdi. Zikr etilgan muvaffaqiyatli namunalarni “Tazkiratu-sh-shuaro” va “Tafsiratu-n-nuzamo” (“Nozimlar manzarasi”) nomli shu tazkiralari bilan Latifiy beradi. Birinchi tazkira muqaddima, uch fasl va xotimadan tashkil topgan. Usmonli tazkiralarning Hirot maktabi tazkiralardan olgan jihatlari- muqaddimalar, bir maʼnodagi poetik xususiyatlardir. Latifiy tazkirasining muqaddimasi esa bularning eng yangilaridan biridir.

XVI asrning eng muhim shoirlar haqidagi tazkiralardan biri Oshiq Chalabiyning (1520-1571) “Mashoyiru-sh-shuaro”sidir. Bu asar ham muqaddima bilan boshlanadi, bu boʻlim Usmonli tazkiralarning eng uzun muqaddimasidir va kitobning oʻndan birini qamraydi. Bu boʻlimda muallif insonni ifoda etish vositasi boʻlgan nasr va nazmdan, keyinroq esa sheʼr tarixidan soʻz ochadi. Bu boʻlimning ahamiyatli bir qismini shunday asarlarda doim koʻtarilganidek, sheʼr taʼqiqlangan emasligining isboti tashkil etadi. Chalabiy muqaddimaning bu boʻlimida asarni nechun va qanday yozganini, Latifiy bilan musobaqalashganini va uning tizimiga rioya etib, oʻzlashtirganini aytadi. Usmonli oʻlkasida shoir koʻpligi sababini muallif oʻlkaning suvlari, havosi tozaligiga va tabiati goʻzalligiga bogʻlab koʻrsatadi. Ammo u tazkirasiga har bir sheʼr muallifini emas, bu ishni maslak qilganlarni kiritadi. Tazkiraga olinganlarning hayoti juda keng yoritilgani uchun ham bu asar tazkiradan koʻra koʻproq shoirlar tarixidir. “Mashoyiru-sh-shuaro” dan 425 shoir oʻrin olgan: Murod I davridan asar yozilgan paytgacha yashagan shoirlarni oʻz ichiga olgan tazkira shoirlar biografiyasiga, ayniqsa, muallif zamondoshlariga keng oʻrin ajratgan. Shu sababli asar, hususan, XVI asr shoirlari uchun tengi yoʻq bir manbadir. Juda uddaburon, faol, tashabbuskor, kirishimli mijozga ega Oshiq Chalabiy bu xislatlari tufayli zamondosh shoirlarning koʻpchiligi bilan shaxsan koʻrishgan, bunga imkoniyat yoʻq vaqtlarda maktublashgan yoki ularni tanigan, bilgan shaxslardan maʼlumot olgan. Uzun biografiyalarda rasmiy maʼlumotlardan tashqari shoirlarning shaxsiy hayoti, tabiatlari, turmush tarzlari, odatlari, oʻzaro munosabatlari haqidagi maʼlumotlarni toʻplaydi, bu orada davrning ijtimoiy hayotiga va adabiy doirlariga oid keng izohlar beradi. Shuning uchun asar ijtimoiy bilimlarning juda koʻp sohasiga doir boy maʼlumotlarni oʻz ichiga oladi. Bu xususiyatlari bilan “Mashoir ush-shuaro” tazkirachilik tariximizning yagona namunasidir. Tazkiraning tili Lutfiydan koʻra jiddiyroq, ogʻirroq, murakkabroq va saʼjlar bilan toʻla boʻlgani holda uslubi ravondir. Chalabiy shoirlarning portret tasvirlarini jonli chiqarishga mohirdir. Asarning esa 29 qoʻlyozma nusxasi bor.

Muqaddimada tazkiranavis

“Zaboni turkiyning dostonaroyi,

Fasohat bulbuli, yaʼni Navoiy”,

deya Navoiydan soʻz ochgan. Va davomida “...Oxir umrinda Sulton Boyazidga Navoiy oʻttiz uch gʻazal yubormishki, birisi ushbu gʻazaldur, matlaʼsi quyidagichadir:

Ul pari paykarki hayron boʻlmish ins-u jon anga,

Jumla olam manga hayron-u men hayron anga.

Sulton Boyazid II bu g'azalni Ahmad Poshoga yuborib, unga nazira bitishni buyurgan.¹

XVI asrning boshqa bir tazkirachisi esa Hasan Chalabiydir. Uning "Tazkiratu-sh-shuaro" tazkirasi Oshiq Chalabiydan 18 yildan keyin yozilgan. Tazkira muqaddima va uch fasldan iborat. 1-faslda 6 shoir podishoh, 2-faslda 5 shahzoda shoir hayoti va ijodi haqida so'z boradi. Asarning asosiy, muhim bo'limini tashkil etgan 3-faslda esa 618 ta shoir hususida alifbo tarzda ma'lumot olish mumkin. Bu tazkirada kamchiliklar ham mavjud bo'lib, unda fikrlar ayqash uyqash va horijiy so'zlardan ham foydalanilgan. Haqiqatdan asarning bu jihati o'z zamonidayoq ko'plab buyuk shaxslar tomonidan tanqid etilgan va tazkiraning g'arib so'zlari, haddan tashqari silsilali so'z birikmalari, nuqsonli ifodasi, shoirlar nomidan yolg'on to'qilmalari va imlo hatolari ham tanqid ostiga olingan edi² Ammo bu tazkirani ham o'z ishtiyoqmandlar bo'lgan va mazkur tazkira sevib mutolaa qilingan. Tazkirachilik tarixida eng ko'p nusxa ko'chirilib ko'paytirilgan asarlardan biriga aylangan.³

XVI asrning so'nggi shoirlaridan bo'lgan Bayoniyning "Tazkirayi shuaro" si aslida Hasan Chalabiyning tazkirasining qisqartirilgan shakli hisoblanadi. Muqaddima qismida muallif bir do'stining iltimosiga binoan Hasan Chalabiy tazkirasini xulosalab shu asarni qalamga olganini va buni o'zi uchun yozganini ma'lum qiladi. Bundan tashqari tazkirachilik bilan ko'plab turkiy shoirlar faoliyat olib borganlar.

Zero tazkirachi ma'lum bir maslakda tanilgan kishilarning, masalan, avliyolarning, xattotlarning, me'mor, musiqa ustalarining hatto gul yetishtiruvchi mohir bog'bonning hayoti va san'ati, hunari haqida so'z yuritilishi mumkin. Ammo tazkira so'zi eng keng ma'noda qo'llanish sohasini shoirlar hayoti va she'rlaridan so'zlagan kitoblarda topgan. Shundayki, bu kitoblarning ba'zilar tazkira so'zini mahsus bir nom sifatida qo'llaganidek, boshqa bir nom qo'llaganlari ham ko'pincha tazkira nomi bilan eslanmoqda. Bu asarlar joy yoki maslak nomi bilan zikr etiladi. Shoirlar hayoti va ijodidan so'z yuritilganlariga "Tazkirai shuaro" yoki "Tazkiratu-sh-shuaro", eranlardan hikoya qiluvchilarga "Tazkiratu-l-avliyo", xattotlarga bag'ishlanganlari esa "Tazkiratu-l-xattotin".

Hulosa qilib aytadigan bo'lsak, tazkirachilik an'anasi Islom madaniyatiga xos bir voqea bo'lib, uning ildizi musulmonlarning ilk davrlarida boshlangan tafsir va hadisga aloqador faoliyatga borib taqaladi. Shu sababdan tazkiralalar adabiy siymolar va ularning asarlarini tadqiq etishda adabiyotshunoslikning Benazir janri sifatida xizmat qiladi.

Yosh avlodlarga turkiy adabiyot ulug'laridan biri- Alisher Navoiyni tanishtirmasdan, tarixiy xotiramizni yangilamasdan-kuchaytirmasdan turib, o'tmish-bugun-kelajak orasida ko'prik qurib bo'lmaydi.

¹Oshiq Chalabiy "Mashoir ush-shuaro". Istanbul, 2011 (3 jild)"

²Mustafa Isen, a.g.e. S. 214 (Mustafo Eson, Ko'rsatilgan asar. B. 214)

³Hasan Çelebi Tezkiresi, (Haz. Ibrahiim Kutluk). 2 S, Ankara, 1978-1981 (Hasan Chalabiy tazkirasi. Ibrohim Qutlug' nashrga tayyorl. 2-jild. Anqara, 1978-1981).